

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№3

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 119 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODEL I	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI

Normatova Gulmira Xayrullaevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliyaviy hisob va hisobot kafedrası katta o'qituvchisi, PhD.

ORCID: 0009-0008-2748-0696

Annotatsiya. Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitorlik qarzlarning strategik boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Debitorlik qarzlarning iqtisodiy mohiyati, ularning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'siri hamda samarali boshqarish mexanizmlari tahlil qilingan. Statistik va variatsion tahlil usullaridan foydalanilgan holda debitorlik qarzlarni boshqarishning bosqichma-bosqich modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, debitorlar moliyaviy holatini baholash, qarzdorlik hajmini optimallashtirish va muddati o'tgan qarzlarni kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: debitorlik qarzlari, strategik boshqaruv hisobi, boshqaruv hisobi, moliyaviy barqarorlik, statistik tahlil, variatsiya koeffitsiyenti, Jini koeffitsiyenti, Xerfindal indeksi, qarzdorlikni boshqarish.

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of organizing strategic management accounting of accounts receivable in business entities. The economic nature of receivables, their impact on a company's financial stability, and mechanisms for effective management are analyzed. Based on statistical and variation analysis methods, a step-by-step model for strategic management accounting of receivables is developed. Practical recommendations are proposed for assessing the financial condition of debtors, optimizing receivables, and reducing overdue debts.

Keywords: accounts receivable, strategic management accounting, management accounting, financial stability, statistical analysis, coefficient of variation, Gini coefficient, Herfindahl index, debt management.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты организации стратегического управленческого учета дебиторской задолженности на предприятиях. Раскрыта экономическая сущность дебиторской задолженности, проанализировано ее влияние на финансовую устойчивость организации и механизмы эффективного управления. На основе статистических и вариационных методов анализа разработана поэтапная модель стратегического управленческого учета дебиторской задолженности. Предложены практические рекомендации по оценке финансового состояния дебиторов, оптимизации задолженности и сокращению просроченных долгов.

Ключевые слова: дебиторская задолженность, стратегический управленческий учет, управленческий учет, финансовая устойчивость, статистический анализ, коэффициент вариации, коэффициент Джини, индекс Херфиндаля, управление задолженностью.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etayotgan xo'jalik subyektlari o'rtasida yuzaga kelayotgan muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosining maqbul yechimlarini topish dolzarblik kasb etmoqda. Shu bois bugungi kunda qarzdorlik muammolarini, xususan, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar ko'lamini imkon qadar qisqartirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy inqirozlarning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bir paytda, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rganish, shuningdek, ushbu muammo ko'lamini iqtisodiy richag va mexanizmlar yordamida qisqartirish masalalariga ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, muddati o'tgan qarzdorliklarning joriy holatini aks ettiruvchi ekonometrik modellarni shakllantirishning innovatsion usullarini joriy etish, qarzdorlik aloqalarining zanjirsimon ketma-ketligini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularni vakolatli va mas'ul idoralar tomonidan iqtisodiy vositalar orqali tartibga solishning nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda iqtisodiy-matematik usullar yordamida qarzdorlik hajmini kamaytirish yo'llarini tadqiq etish ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri sanaladi.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va iqtisodiyotning barcha soha hamda tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarni qisqartirish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "barcha toifadagi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratishni davom ettirish, hisob-kitob tizimining shaffofligini oshirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov intizomini yanada mustahkamlash" masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Debitorlik qarzlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy aktivlari, ya'ni aylanma mablag'larining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U sotilgan tovar (ish, xizmat)lar uchun to'lov ma'lum muddat o'tgach amalga oshirilishi natijasida vujudga keladi.

Debitorlik qarzlari deganda xo'jalik yurituvchi subyektning shartnoma asosida xaridorga yetkazib berilgan tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelgusida olinishi lozim bo'lgan to'lovlarga nisbatan huquqi tushuniladi. Shuningdek, moliyaviy va investitsion faoliyat natijasida boshqa tashkilotlar hamda jismoniy shaxslarning mazkur subyekt oldidagi qarz majburiyatlari ham debitorlik qarzlari tarkibiga kiradi. Ushbu huquq va majburiyatlar, odatda, belgilangan muddat tugashi bilan undirilishi lozim bo'lgan summalarini anglatadi.

Xalqaro standartlarda "amortizatsiyalanadigan qiymat" quyidagicha ta'riflanadi: moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning boshlang'ich tan olinishi paytidagi qiymatidan asosiy qarz summalariga to'lovlar chegiriladi, unga boshlang'ich qiymat bilan samarali foiz stavkasi usuli asosida hisoblangan to'lanadigan (yoki undiriladigan) summa o'rtasidagi farq bo'yicha jamg'arilgan amortizatsiya qo'shiladi yoki ayriladi hamda moliyaviy aktivlar bo'yicha baholangan rezerv summasi chegiriladi.

Debitorlik qarzlarning hajmi va tarkibi bevosita sotilgan mahsulotlar hajmiga, xaridorlar bilan hisob-kitoblar tartibiga hamda xo'jalik yurituvchi subyektning shakllantirgan moliya-kredit siyosatiga bog'liqdir.

Joriy aktivlar tarkibida debitorlik qarzlari ulushining nisbatan past bo'lishi moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan ijobiy ko'rsatkich sifatida baholanadi. Biroq amaliyotda sotilgan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha tushum har doim ham darhol kelib tushavermasligi tabiiy iqtisodiy jarayon hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu doirasida zamonaviy ilmiy maktablar qarashlari hamda mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditorlik qarzlari va ularni samarali boshqarish masalalari ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan.

Xususan, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari muammolari bo'yicha xorijiy olimlardan M. Tomazelli, Vi Chian Ko, M. Ayxan Koze, Piter S. Negl, Fransiska J.I. Onsorte, Naotaka Sugavara, Frenk J. Fabossi, Piter S. Rouz, Adjay Chibber, Saymon Stiven J. Chekketi, M. S. Moxanti, F. Dzampolli, Sigeto Yoneda va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari — P. Galanzy, B. Gromanova, O.V. Amurjuev, A.E. Dorogavsev, M.G. Delyagin, D.O. Chuxlansev, A.N. Katulev, G.V. Kolesnik, V.N. Mixeev, N.N. Kalitkin, A.A. Samarskiy, A.P. Mixaylov va boshqalar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Tadqiqot mavzusining ayrim jihatlarini Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida, Sohibqiron Amir Temurning "Tuzuklar"ida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning turli nashrlarda bayon etilgan fikr-mulohazalari hamda ilmiy asarlarida ham o'z aksini topgan.



O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan I.A. Karimov, A. Abdug'afarov, T. Abduvaxitov, K. Toirbekov, A. Ulmasov, F. Mullajonov, A. Norkulov, I. Sayfiddinov, A. Taspanovalarning ilmiy tadqiqotlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarni qisqartirishga doir muammolarning ayrim nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganilgan.

Shuningdek, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan N. Abdusalomova, K. Axmedjanov, A. Karimov, S. Mehmonov, I. Ochilov, A. Paradaev, I. Qo'ziev, U. Nurmanov, D. Mavlyanova va boshqalarning izlanishlarida debitorlik qarzlarning buxgalteriya hisobi, tahlili va auditi bilan bog'liq muammolar hamda ularning yechimlariga qaratilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarda debitorlik qarzlarning strategik boshqaruv hisobini tashkil etish masalalari yetarli darajada kompleks yondashuv asosida o'rganilmaganini qayd etish mumkin. Shu bois mazkur yo'nalishning tashkiliy va uslubiy jihatlarini chuqurroq tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy izlanish jarayonida aniq faktlarga asoslangan holda ma'lumotlarni guruhlariga ajratish, ijtimoiy va iqtisodiy holatlarni tahlil qilish, tahlil va sintez usullarini qo'llash, shuningdek, statistik ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash kabi metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv va raqobat muhitining tobora kuchayib borayotgan sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitorlik qarzlarni imkon qadar qisqartirish nafaqat moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omil, balki ularning istiqboldagi raqobatbardoshligini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich ham hisoblanadi. Shu bois xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitorlik qarzlari hajmini optimallashtirish, ushbu mablag'lar aylanishini tezlashtirish hamda pirovardida moliyaviy holatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida debitorlik qarzlarni hisobga olish va ularni samarali boshqarish maqsadida strategik boshqaruv hisobini tashkil etish hamda yuritish zamon talabi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Debitorlik qarzlarni hisobga olish va ularning strategik boshqaruv hisobini tashkil etishda quyidagi muhim jihatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya balansi ko'rsatkichlari optimal deb baholanishi uchun debitorlik va kreditorlik qarzlari o'rtasida maqbul nisbat ta'minlanishi lozim.

2. Kreditorlik qarzlari miqdorining debitorlik qarzlarga nisbatan sezilarli darajada ortib ketishi subyektning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Debitorlik qarzi ko'rinishida turgan mablag'lar ma'lum ma'noda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan foizsiz ajratilgan mablag' sifatida namoyon bo'ladi, chunki ular bevosita daromad keltirmaydi va vaqt o'tishi bilan, hech bo'lmaganda inflyatsiya darajasi miqdorida, real qiymatini yo'qotishi mumkin.

4. Debitorlik qarzlarning ortib borishi ko'pincha kreditorlik qarzlarning ham oshishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, debitorlik qarzlari xo'jalik yurituvchi subyekt joriy aktivlarining muayyan qismi muomaladan chetda qolayotganini, ya'ni xalqaro amaliyotda "aktivlarning immobilizatsiyasi" deb baholanadigan holatni ifodalashini ta'kidlash mumkin. Bunday vaziyat subyekt daromadiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi va iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Kapital aylanishiga ta'siri esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Debitorlik qarzining muddati uzaygan sari xo'jalik yurituvchi subyektning real daromad olish imkoniyatlari kamayib borishi mumkin.

2. Inflyatsiya sharoitida debitorlik qarzining qaytarilishi kechikkan taqdirda, qaytarilgan mablag'ning real qiymati pasayishi ehtimoli mavjud.

3. Debitorlik qarzi joriy aylanma aktivlarning muhim tarkibiy qismi bo'lgani sababli, uning o'rnini qoplash uchun subyekt qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etishga ehtiyoj sezishi mumkin.

Qayd etilgan fikr-mulohazalar hozirgi sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitorlik qarzlarning strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitorlik qarzlarning strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishda statistik tahlil asosida variatsion tahlil usulidan foydalanish hamda uni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish taklif etiladi:

Birinchi bosqich – debitorlik qarzdorlarining optimal guruhlarini shakllantirish.

Ikkinchi bosqich – debitor qarzdorlar bo'yicha oqilona interval qatorini belgilash. Ushbu bosqichda qarzdorlik miqdorlaridan kelib chiqib, intervallarni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Uchinchi bosqich – variatsion interval qatorlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlarini hisoblash.

To‘rtinchi bosqich – variatsiya ko‘rsatkichlarini aniqlash: dispersiya, o‘rtacha kvadratik chetlanish hamda variatsiya koeffitsiyentini hisoblash.

Beshinchi bosqich – yalpi birliklar taqsimotidagi tengsizlik darajasini aniqlash maqsadida Jini konsentratsiya koeffitsiyentini hisoblash hamda xo‘jalik yurituvchi subyekt debitorlari orasida ustun (konsentratsiyalashgan) guruhlarni aniqlash imkonini beruvchi Xerfindal koeffitsiyenti miqdorini belgilash.

1-jadval. ChEII “Toshkentvino kombinati” AJ debitorlik qarzlari boshqarish samaradorligini baholashning asosiy indikatorlari (statistik ko‘rsatkichlari)

T/r	Indikatorlar	Miqdori, mohiyati
1.	O‘rtacha miqdori, so‘mda	10 301 652
2.	Tasdiqlangan rejim (moda), so‘mda	194,85
3.	Mediana, so‘mda	882,5
4.	Dispersiya	151,0453 x 10
5.	O‘rtacha kvadratik chetlanish, so‘mda	32 331 099
6.	Variatsiya koeffitsiyenti, (%)	314
7.	Jinni koeffitsiyenti, (%)	79,5
8.	Xerfindal koeffitsiyenti, (%)	27,11
9.	Pirson assimetriya koeffitsiyenti	0,319

Tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan mediana ko‘rsatkichlari o‘rtacha qiymat hamda aniqlangan moda oralig‘ida joylashganini ko‘rsatadi. Bu holat ko‘rib chiqilayotgan guruhlar taqsimotining o‘rtacha darajada assimetrik ekanligidan dalolat beradi. Oddiyroq ifoda etilganda, 1-jadval ma’lumotlari chet el investitsiyasi ishtirokidagi “Toshkentvino kombinati” AJda debitorlik qarzlari hajmi va ularning muddati me’yoriy darajada ekanini, ya’ni boshqariladigan holatda ekanini ko‘rsatadi.

O‘rtacha kvadratik chetlanish ko‘rsatkichining nisbatan yuqoriligi debitorlik qarzlari hajmining keng ko‘lamga ega ekanini hamda muddati o‘tgan qarzlarni undirish jarayonida muayyan risk omillari mavjud bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Variatsiya koeffitsiyentining yuqori darajada bo‘lishi esa debitor qarzdorlar tarkibi bir xil emasligini, ya’ni ularning soni va hajmi sezilarli farqlanishini hamda shunga mos ravishda ularni boshqarish jarayoni murakkablashishini ko‘rsatadi.


Jini koeffitsiyenti (79,5) debitorlik qarzlarning xaridorlar o‘rtasida nisbatan notekis taqsimlanganini, ya’ni qarzdorlikning asosiy qismi ma’lum bir guruh debitorlar hissasiga to‘g‘ri kelishini bildiradi. Xerfindal koeffitsiyenti (27,11) ham qarzdorlikning muayyan darajada konsentratsiyalashganini tasdiqlaydi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, chet el investitsiyasi ishtirokidagi “Toshkentvino kombinati” aksiyadorlik jamiyatida debitorlik qarzlarning strategik boshqaruv hisobini yanada takomillashtirish hamda ularning hajmini optimallashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda debitorlik qarzlari miqdorini mutlaq “no” darajaga tushirish imkoniyati mavjud emas. Biroq muddati o‘tgan debitorlik qarzlari hajmini kamaytirish real va zarur vazifa hisoblanadi. Aynan ushbu ustuvor masalani hal etishga xizmat qiluvchi tizim sifatida joriy aktivlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan debitorlik qarzlari bo‘yicha 1-rasmda keltirilgan shaklda strategik boshqaruv hisobini tashkil etish taklif etiladi.

1-rasmda taklif etilayotgan debitorlik qarzlari bo‘yicha strategik boshqaruv hisobi tizimi xo‘jalik yurituvchi subyektda mahsulot (ish, xizmat)lar xaridorlarga jo‘natilgan paytdan boshlab faoliyat yurita boshlaydi.

Mazkur tizim jo‘natilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, tuzilgan shartnomalar, shartnoma shartlariga muvofiq oldindan avans sifatida amalga oshirilgan to‘lovlar miqdori va boshqa zarur ma’lumotlarni jamlaydi hamda ularni tahlil qilish va umumlashtirish uchun tayyor holga keltiradi.



1-rasm. Debitorlik qarzlari (DQ)ning strategik boshqaruv hisobi tizimi

Taklif etilayotgan tizimning muhim elementlaridan biri — “debitorlarning moliyaviy holatini tahlil qilish” bosqichidir. Ushbu bosqichda debitorlarning moliyaviy holati ularning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida tahlil qilinishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, rasmiy hisobotlarda ayrim ko'rsatkichlarning tuzatilishi yoki real holatga nisbatan ma'lum darajada farqlanishi uchrab turadi. Natijada hisobot ma'lumotlari ko'pincha to'lov qobiliyati bo'yicha ijobiy xulosalar chiqarish uchun yetarli asos bo'lib ko'rinadi.

Shu bois xo'jalik yurituvchi subyekt o'z debitorlari yuzasidan uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan mustaqil ma'lumotlar bazasini shakllantirib borishi maqsadga muvofiqdir. Bunda an'anaviy tahlil usullari bilan bir qatorda zamonaviy va noan'anaviy yondashuvlardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur bosqich yakunida xaridorlar bilan shartnomalar tuzish strategiyasini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, ushbu blok doirasida debitorlik qarzlarning hajmi hamda ularning vujudga kelgan muddatlari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tahlil natijalari umidsiz debitorlik qarzlari miqdorini aniqlash, yirik debitorlar kesimida undirilishi qiyin bo'lgan qarzlarning bo'yicha xazira shakllantirish zaruratini belgilash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan 1-rasmdagi tizimning “debitorlik qarzlarni boshqarish usullarini takomillashtirish” blokida muddati o'tgan debitorlik qarzlarni qisqartirishga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan uchta asosiy usuldan foydalanish tavsiya etiladi.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) ta'sir usullariga sudgacha bo'lgan tartibda ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash hamda zarur hollarda sud qarori asosida undirish mexanizmlaridan foydalanish kiradi.



Bilvosita ta'sir usullariga esa ushbu vazifa yuklatilgan xodimlarni samarali faoliyatga rag'batlantirish, ularni moddiy va nomoddiy motivatsiya vositalari bilan qo'llab-quvvatlash kabi choralar kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda ta'kidlash mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitorlik qarzlarning strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish maqsadida taklif etilgan variatsion statistik tahlil usuliga asoslangan besh bosqichli yondashuv muhim amaliy ahamiyatga ega. Mazkur model doirasida o'rtacha kvadratik chetlanish ko'rsatkichi, debitorlik qarzlari bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, Jini hamda Xerfindal koeffitsiyentlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa pirovard natijada xo'jalik yurituvchi subyektning debitorlik qarzlari miqdorini optimallashtirishning maqbul variantlarini belgilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, masalaning samarali yechimini ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuv sifatida debitorlik qarzlarning 1-rasmda taklif etilgan shaklda strategik boshqaruv hisobini tashkil etish har bir xo'jalik yurituvchi subyektda istiqbolga mo'ljallangan debitorlik qarzlarni kompleks va samarali boshqarish tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi "Hisob-kitob tizimini takomillashtirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov intizomini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-141-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6033208>
2. 15-son MHXS "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar" standarti. <http://finotchet.ru/articles/102/>
3. Друри К. Управленческий учет для бизнес-решений: Учебник /Пер. с. англ. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 655 с.
4. Керимов В.Э. Стратегический учет. Учебное пособие / В.Э. Керимов М.: Омега-Л, 2005. 168 с.
5. Хахонова И.И., Хахонова Н.Н. Система стратегического учета: формирование и развитие // Фундаментальные исследования. 2013. № 6-3. С. 720-724.
6. Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va amaliy asoslari: Monografiya /U.U.Kostayev: T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. 180 bet.
7. Maxsudov B.Yu. Boshqaruv hisobida budjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.
8. Pardayev A.X, Pardayeva Z.A., Pardayeva Sh.A. Operativ va strategik boshqaruv hisobi /Darslik.- T.: OOO "Diadema nur servis", 2023.-420 bet.
9. Pardayeva Sh.A. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish. Toshkent, "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali, 2021 yil, №3.
10. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. T.:Iqtisod-Moliya, 2005. -308 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100